

Meriyat



UZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
URGANCH INNOVATSION UNIVERSITETI



**Urganch innovatsion universitetining ta'sischisi
va birinchi rektori Madamin Ishmuratovning
xotirasiga bag'ishlangan**

**“GLOBAL RAQAMLI JAMIYATDA ILM-FAN
VA TA'LIM: TARIXIY MEROS,
INNOVATSIYALAR VA INSON KAPITALI**

mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy anjuman



Urganch 2026

Mundarija

SO‘ZBOSHI.....	8
ISHMURATOV MADAMIN JUMABAYEVICH – UNIVERSITETNING BIRINCHI REKTORI, ASOSCHISI VA TASHKILOTCHISI, TA‘SISCHISI R.Y.Xudoyberganov.....	9
1-SHO‘BA: GLOBALLASHUV DAVRIDA TARIXIY MEROSNI O‘RGANISH, SAQLASH VA TARG‘IB QILISH MASALALARI.....	12
XORAZM HUDUDINING SHAYBONIYLAR DAVLATI TARKIBIGA QO‘SHIB OLINISHI: MUHAMMAD SHAYBONIYXON YURISHLARI MISOLIDA QIYOSIY TAHLIL. <i>Otajonova Madinabonu Sheripboy qizi</i>	13
TA‘LIM JARAYONIDA NEYROTARMOQ YONDASHUVI ASOSIDA TALABALARNI INDIVIDUALLASHTIRILGAN O‘QITISHNI TASHKIL QILISH <i>Yusupov Davronbek Firnafasovich</i>	17
MUZEY EKSPONATLARINI VIRTUALIZATSIYA QILISH: GLOBALLASHUV DAVRIDA MASOFAVIY MA‘RIFAT ABDIRIMOV RAZZOKBERDI <i>Yaxshimuratov San‘atbek Yaxshimuratovich</i>	23
TARIXIY MEROSNI VIRTUALIZATSIYA QILISH — XALQARO TARG‘IBOTNING SAMARALI USULI <i>Anyozov Ruslan Botirovich, Abdirimov Feruzjon Razzokberdiyevich</i>	28
YOG‘OCHGA ISHLOV BERISH EVOLYUTSIYASI, UNING RIVOJIDAGI TRANSFORMATSION JARAYONLAR (Xiva ichan qal‘a muzey-qo‘riqxonasi misolida) <i>Atadjanova Dilnoza Amonboyevna</i>	34
SIRDARYOBO‘YI O‘G‘UZ YABG‘ULARI DAVLATI VA XORAZM: ETNOSIYOSIY VA IQTISODIY MUNOSABATLAR TARIXI (IX–XI ASRLAR) <i>Raximbayev Xurmat Xursand o‘g‘li</i>	40
XORAZM VILOYATDA FERMER XO‘JALIKLARINING TASHKIL TOPISHI TARIXI <i>Xujamatov Intizom Jumabayevich</i>	44
XX ASRDA XORAZM VOHASIDA ETNOMADANIY O‘ZGARISHLARNI O‘RGANISHNING MANBASHUNOSLIK VA TARIXSHUNOSLIK MUAMMOLARI <i>Abdullayev Jasurbek Rahimboy o‘g‘li</i>	48
BUYUK IPAK YO‘LINING XORAZM ORALIG‘IDAGI TARMOQLARI: TARIXIY MANBALARDA <i>Jumaniyozov D.</i>	51
SURXON VOHASINING MADANIY MEROS YODGORLIKLARI <i>Tilovboyeva Mardona Aybekovna</i>	56
XORAZM VOHASIDA TABIIY RESURLARDAN OQILONA FOYDALANISHNING AN‘ANAVIY SHAKLLARI <i>Egamberganova Matluba Jobborgonovna.</i>	58
TOSHKENT SHAHRIDA URBANIZATSIYA JARAYONLARI VA UNDA METROPOLITENNING O‘RNI <i>Matyakubov Nurbek Rayimberganovich</i>	61
O‘ZBEKLARNING BIRINCHI ADVOKATI <i>Palvanova Tuxtajon Pavlanovna Abdullayeva Nasiba Seydullayevna</i>	65
O‘ZBEKISTON HUDUDIDA BRONZA VA ILK TEMIR DAVRI QISHLOQ TIPIDAGI TURARJOYLARNING GENEZISI VA EVOLYUTSIYASI <i>Nurmetov Sardor Baxtiyorovich</i>	69
YOSHLAR MA‘NAVIY TARBIYASINING NAZARIY VA AMALIY ASOSLARI <i>Radjapov Odilbek Babanazarovich</i>	72
QISHLOQ XO‘JALIGI MOLIYALASHTIRILISHI VA KOLLEKTIVLASHTIRISH OQIBATLARI <i>O‘rinov Og‘abek Ilhombek o‘g‘li</i>	74
XORAZM VOHASIDA TEATR SOHASINING RIVOJLANISHI (XX asr 20-30-yillarida) <i>Otojonov Shohzodbek Muzaffar o‘g‘li</i>	80
ZAMONAVIY GLOBALLASHUV KONTEKSTIDA IJTIMOIIY-IQTISODIY JARAYONLARNING EVOLYUTSIYASI <i>Nurullayeva Kuvonch Xudayberdiyevna</i>	84

tarixiy meros, balki amaliy ahamiyatga ega bo'lgan barqaror rivojlanish modeli sifatida ham alohida e'tiborga loyiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Толстов С.П. Древний Хорезм. – Москва: МГУ, 1948.
2. Дала ёзуви: Хоразм вилояти Боғот тумани, 2024 йил.
3. Гулямов Я.Г. История орошения Хорезма. – Ташкент: Фан, 1957.
4. Дала ёзуви: Хоразм вилояти Хазорасп тумани, 2025 йил.

**TOSHKENT SHAHRIDA URBANIZATSIYA JARAYONLARI VA
UNDA METROPOLITENNING O'RNI**

Matyakubov Nurbek Rayimberganovich

Urganch davlat universiteti tadqiqotchisi

UrIU ma'naviy-ma'rifiy

ishlar bo'yicha prorektor, Ph.D dotsent.

Annotatsiya: *Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasida, xususan, Toshkent shahrida urbanizatsiya jarayonlarining shakllanishi, rivojlanish bosqichlari hamda ularning tarixiy omillari tahlil qilinadi. Tadqiqotda mamlakat hududida urbanizatsiya jarayonlarining paydo bo'lishi va rivojlanishiga ta'sir ko'rsatgan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy hamda demografik omillar o'rganiladi. Shuningdek, sovet davrida sanoatlashuv siyosati natijasida shaharlarning kengayishi, yangi sanoat markazlarining vujudga kelishi va aholi migratsiyasi jarayonlari yoritiladi. Mustaqillik yillarida urbanizatsiya jarayonlarining yangi bosqichi, shahar infratuzilmasining modernizatsiyasi, hududiy rivojlanish siyosati hamda urbanistik rejalashtirish masalalari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot natijasida urbanizatsiya jarayonlarining tarixiy xususiyatlari, ularning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish bilan o'zaro bog'liqligi hamda zamonaviy shahar taraqqiyotidagi ahamiyati ochib beriladi.*

Kalit so'zlar: *urbanizatsiya, shaharlar rivojlanishi, demografik jarayonlar, sanoatlashuv, migratsiya, shahar infratuzilmasi, hududiy rivojlanish, urbanistik rejalashtirish, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot, O'zbekiston shaharlari.*

Аннотация: *В данной статье проводится исторический анализ процессов урбанизации в Республике Узбекистан. Исследуются основные этапы формирования и развития урбанизации, а также социально-экономические, политические и демографические факторы, повлиявшие на рост городов. Особое внимание уделяется периоду индустриализации в советское время, когда происходило расширение городов, формирование новых промышленных центров и усиление миграционных процессов. Также анализируются особенности развития урбанизации в годы независимости, модернизация городской инфраструктуры, региональная политика развития и современные подходы к градостроительному планированию. В результате исследования раскрываются исторические особенности урбанизационных*

процессов и их роль в социально-экономическом развитии страны.

Ключевые слова: урбанизация, развитие городов, демографические процессы, индустриализация, миграция, городская инфраструктура, региональное развитие, градостроительное планирование, социально-экономическое развитие, города Узбекистана.

Abstract: *This article provides a historical analysis of urbanization processes in the Republic of Uzbekistan. The study examines the main stages in the formation and development of urbanization, as well as the socio-economic, political, and demographic factors that influenced the growth of cities. Particular attention is paid to the period of industrialization during the Soviet era, when urban expansion, the emergence of new industrial centers, and increased migration processes took place. The article also analyzes the characteristics of urbanization in the years of independence, including the modernization of urban infrastructure, regional development policies, and contemporary approaches to urban planning. The research reveals the historical features of urbanization processes and their significance for the country's socio-economic development.*

Keywords: urbanization, urban development, demographic processes, industrialization, migration, urban infrastructure, regional development, urban planning, socio-economic development, cities of Uzbekistan.

Urbanizatsiya bugun faqat shaharlarning geografik hajmi yoki aholi sonining ko'payishi emas, balki infratuzilma, transport, ijtimoiy xizmatlar, ekologiya va zamonaviy shahar muhitini kompleks rivojlantirish jarayonidir. Iqtisodiy jihatdan urbanizatsiya katta konsentratsiya effektini yaratadi[2]. Shahardagi mehnat bozori kengayib, sanoat, xizmat ko'rsatish, logistika, moliya, raqamli va kreativ sektorlar tez rivojlanadi. Aholi va biznesning yuqori zichligi xarajatlarni kamaytiradi, bilim va texnologiyalar almashinuvini tezlashtiradi. Mehnat unumdorligini oshiradi va tadbirkorlik faoliyatini kengaytiradi. Davlat uchun bu investitsiyaviy jozibadorlikni mustahkamlash, soliq bazasini kengaytirish va xalqaro raqobatbardoshlikni oshirish imkonidir.

Dunyo tajribasi urbanizatsiya samarasi uzoq muddatli strategiya va kuchli boshqaruv institutlarisiz amalga oshmasligini ko'rsatadi. Masalan, Singapur bir necha o'n yilda aholisi ko'p va resurslari cheklangan shahardan dunyodagi eng qulay, raqobatbardosh megapolisga aylandi. Bu puxta shaharsozlik rejasi, jamoat transporti va uy-joy siyosati orqali amalga oshirildi. Seul esa infratuzilma va raqamlashtirishga yo'naltirilgan katta investitsiyalar orqali iqtisodiy va texnologik markazga aylandi[3].

O'zbekiston ham ana shunday strategik yo'lni bosib o'tmoqda. Biroq o'n yillar oldin mamlakatimizda urbanizatsiya sohasida ko'plab tizimli muammolar mavjud edi. Shaharlar uzoq muddatli turg'unlik holatida, hududlarni rivojlantirish bo'yicha yagona strategiya yo'q edi. Ko'pgina shaharlarning bosh rejasi aholi o'sish sur'atiga mos kelmasdi. Transport, kommunal xo'jalik va muhandislik infratuzilmasi urbanizatsiya talabiga javob bermas, yo'llar tor, jamoat transportida tirbandlik yuqori va kommunikatsiyalar eskirgan edi. Ekologiya, obodonlashtirish

va yashil hududlarga yetarli e'tibor qaratilmagan, uy-joy qurilishi esa ko'pincha ijtimoiy infratuzilmasiz amalga oshirilardi.

2017-yildan boshlab Prezident Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan shaharlarni kompleks rivojlantirish va urbanizatsiya davlat siyosatida ustuvor ahamiyat kasb eta boshladi. Shaharlarni rivojlantirishga tizimli va strategik yondashuv joriy etildi. Urbanizatsiya ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar doirasida asosiy yo'nalish sifatida belgilandi. Katta sarmoyalar yo'l tarmoqlari, jamoat transporti, muhandislik va kommunal xo'jalik, kommunikatsiyalar, suv va issiqlik ta'minoti, elektr tarmoqlarini modernizatsiya qilishga yo'naltirildi.

Eng asosiysi, shaharlar va hududlar o'rtasida transport aloqalari yaxshilanib, aholi mobilligi sezilarli darajada oshdi. Shahar muhitini inson uchun qulaylashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Yangi bog'lar, xiyobonlar, piyodalar yo'laklari va umumiy jamoat joylari barpo etilmoqda.

Institutsional rivojlanishda muhim qadam o'tgan yili noyabrda Urbanizatsiya va uy-joy bozorini barqaror rivojlantirish milliy qo'mitasi tashkil etilishi bo'ldi. Prezidentimiz farmoni bilan qo'mita urbanizatsiya jarayoni, uy-joy qurilishi, renovatsiya va ipoteka sohasida davlat siyosatini yuritish, shuningdek, ushbu yo'nalishdagi dasturlarni muvofiqlashtirish va rivojlantirish bo'yicha vakolatli davlat organi deb belgilandi.

Qo'mita qarorlarning barcha bosqichini muvofiqlashtirish, dasturlarni rivojlantirish va nazorat qilish imkoniga ega. Milliy qo'mita tuzilgandan so'ng "Yangi O'zbekiston" massivlari va boshqa massivlarda ko'p kvartirali uylar qurilishi hamda Toshkent, Nukus va viloyatlardagi yirik shaharlar yagona boshqaruv tizimiga o'tdi. Bu tarqoq yondashuvdan kompleks va shahar rivojlanishini ta'minlashga xizmat qilmoqda.

Shu tariqa urbanizatsiya O'zbekistonda uzluksiz, strategik jihatdan rejalashtirilgan rivojlanish instrumentiga aylandi. Bu siyosat iqtisodiy o'sish, investitsiyaviy jozibadorlik va aholi hayoti sifatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi hamda davlat uchun uzoq muddatli raqobatbardoshlikni ta'minlaydi. Murojaatnomada bu sohaga alohida e'tibor qaratilgani ham bejiz emas. Zero, urbanizatsiya jarayonini jadallashtirish, aglomeratsiyalar barpo etish, shaharlarni yashash uchun qulaylashtirish va aholining keng qatlamlari uchun munosib hamda hamyonbop uy-joyga ehtiyojni qondirish bugungi kunda faqat qurilish sohasining emas, balki ijtimoiy adolat, iqtisodiy barqarorlik va kelajak avlodlar manfaatlarini ta'minlash bilan bog'liq strategik vazifadir.

Davlatimiz rahbari ushbu sohaga to'xtalar ekan, "Urbanizatsiya va shaharlarni barqaror rivojlantirish bo'yicha yangi islohotlarni boshlaymiz. Jumladan, shaharlar tartibsiz kengayishining oldini olish bo'yicha aniq mezonlarni belgilaymiz va shu orqali ekin maydonlari asossiz qisqarib ketishiga chek qo'yiladi", deya ta'kidladi.

Shunday ekan, urbanizatsiya, eng avvalo, insonlar hayoti sifati uchun qilinadigan tanlovdir. Bu jarayonda yo'l qo'yilgan har qanday xato qimmatga tushadi. Chunki unumdor yerlar yo'qolishi, infratuzilmaga ortiqcha yuk tushishi va aholining ishonchi susayishi mumkin. Shu bois, bugun shaharlar rivoji tasodifiy

emas, balki puxta o'ylangan siyosat, uzoq muddatli rejalashtirish va professional yondashuv asosida amalga oshirilishi nihoyatda muhim.

Prezidentimizga 2026-yil 3-fevral kuni urbanizatsiya va uy-joy qurilishida yangicha yondashuvlarni joriy etish yuzasidan bo'lib o'tgan taqdimotda so'nggi 8-yilda mamlakatimizda 120 million kvadrat metr yoki 600 mingdan ziyod xonadonlar qurilib, foydalanishga topshirilgani, uy-joy sotib olishga ko'maklashish uchun 541 ming fuqaroga 103 trillion so'm kam foizli ipoteka krediti va subsidiyalar ajratilgani ma'lum qilindi. Qayd etilganidek, qurilish ishlari ko'lami kengaygani qurilish materiallari sanoati rivojiga katta turtki berib, ko'plab hududlarning drayveriga aylandi. Urbanizatsiya darajasi 1991-yildagi 40,3 foizdan 51 foizga yetdi[4].

Taqdimotda yer resurslaridan samarali foydalanish masalalariga ham alohida e'tibor qaratildi. Xalqaro tashkilotlar hisob-kitobiga ko'ra, aholi punktlarining tartibsiz kengayib borishi ayrim hududlarda kelgusida ekin yerlarining tanqisligiga olib kelishi mumkin. Shu munosabat bilan eskirgan uy-joy fondini yangilash, uy-joy qurilishida renovatsiya ulushini oshirish zarurligi ta'kidlandi.

Urbanizatsiya va uy-joy qurilishi jarayonini to'g'ri hamda samarali rejalashtirish uchun raqamli texnologiyalardan keng foydalanish muhim. Ayni maqsadda bosh va master rejalarining yagona ma'lumotlar bazasi, qurilishga tayyor yer maydonlari bazasi, ko'p kvartirali uylarning yagona geoaxborot bazasi, eskrou tizimi, quruvchilar reytingi va boshqalarni qamrab olgan "Uy-joy" axborot tizimi ishlab chiqiladi.

Mazkur chora-tadbirlar natijasida aholining uy-joyga talablari hisobga olingan holda qurilish hajmi ortadi. Qurilayotgan uy-joylar esa barcha zarur infratuzilmaga ega bo'ladi. Urbanizatsiya jarayoni aniq belgilangan dasturlar asosida tashkil etiladi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi davlat statistika qo'mitasining ma'lumotnomasi. Toshkent. 2025.

2. Рейтинг урбанизации стран мира. Гуманитарная энциклопедия [Электронный ресурс] // Центр гуманитарных технологий, 2006–2017 (последняя редакция: 08.10.2017). <http://gtmarket.ru/ratings/urbanization-index/info>

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. <https://president.uz/oz/lists/view/8834>

4. O'zbekiston Respublikasi Urbanizatsiya va uy-joy bozorini barqaror rivojlantirish milliy qo'mitasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida. <https://president.uz/oz/lists/view/8695>.